

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13994604>

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li

Ta'lism va tarbiya nazariyasi va metodikasi (chaqiriqqacha harbiy ta'lism)

2-bosqich magistri

Ilmiy rahbar: Dotsent, R. Mustayev

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ajdodlar merosi tushunchasi bu milliy qadriyatlar, an'analar va tarixiy tajribalar orqali kelajak avlodga vatanparvarlik hissini berish haqida gap boradi.*

Yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ajdodlar merosi tushunchasi bu milliy qadriyatlar, an'analar va tarixiy tajribalar orqali kelajak avlodga vatanparvarlik hissini berish jarayonidir. Ajdodlar merosi, o'z navbatida, vatanparvarlikning asosiy manbalaridan biri bo'lib, yoshlarni o'z millatiga, uning tarixi va madaniyatiga hurmat bilan yondashishga o'rgatadi. Agar yoshlar biz kimlarning avlodni ekanligimizni bilmasa, ular qoldirgan boy ma'naviy meroslar orqali manaviyatini boyitmasa tashqi ma'naviy tahdidlarda yengilib qolishlari mumkin.

Birinchi prezidentimiz I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ma'naviy omillarning nafaqat jamiyatni barqarorlashtirish va rivojlantirishga, balki unga yetarli e'tibor bermaslik jamiyatni tanazzulga yetaklashi, davlat tartibotlarining ichdan nurab ketishiga ham sabab bo'lishi xususida takror takror aytiganligi bejiz emas. "Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, deydi I.Karimov dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlar, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi"⁷² Ta'kidlash joizki, bizning yoshlar orasida milliy qadriyat hodisasiga faol munosabatda oila, mahalla jamoatchilik va davlat muassasalarining pozitiv ta'siri ustuvor mavqega egadir. Darhaqiqat, milliy ma'naviy qadriyatlarning barqarorligi ajdodlarimiz ma'naviy merosiga to'liq egalik bilan bevosita bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak, masalaning nechog'liq dolzarbligi yanada oydinlashadi.

Ajdodlar merosi, milliy tarix, madaniyat va urf-odatlar orqali yosh avlodni o'zligini anglashga undaydi. Bu jarayonda o'z xalqiga, uning qadriyatlari va an'analariga bo'lgan hurmat vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi.

⁷² I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" 2008 yil.

O'zbekiston tarixidagi muhim voqealar, ular asarlari va ajdodlarimizning qahramonliklari orqali yoshlar o'zlarining vataniga sadoqat, jasorat va mas'uliyat hissini o'zida rivojlantiradi. Tarixiy shaxslar, masalan, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobi, Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati yoshlarni ilhomlantiradi.

Vatanparvarlik haqidagi fikrlar ko'plab olimlar, davlat arboblari, jumladan, O'zbekiston Prezidenti va ajdodlarimiz tomonidan ifoda etilgan. Ushbu fikrlar yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish va milliy g'ururni mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi. Quyida vatanparvarlik haqida turli mashhur shaxslarning so'zlari keltiriladi:

Buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniy vatanparvarlik to'g'risida "Vatanparvarlik – bu inson qalbining chuqur his-tuyg'usi bo'lib, u yurtini asrash, xalqiga sadoqat bilan xizmat qilish va uning ravnaqi uchun o'zini bag'ishlashdan iboratdir" degan edi. Beruniyning ilmiy asarlarida Vatanga sodiqlik va unga bo'lgan muhabbatning ahamiyati haqida ko'plab fikrlar uchraydi, u ilmiy ishlarda ham milliy qadriyatlarni asrashni ta'kidlagan.

So'z mulkining sultonini Alisher Navoiy ham vatanparvarlik to'g'risi juda chiroyli fikrlarni bildirganlar "Vatan tuyg'usi – inson qalbining eng ulug' tuyg'ularidandir. Bu tuyg'u o'z millatiga, xalqiga bo'lgan muhabbat va sadoqat orqali namoyon bo'ladi" degan edilar. Navoiy o'z asarlarida insonni yurtparvar bo'lishga, o'z xalqining baxti va farovonligi yo'lida xizmat qilishga undaydi.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur "Kuch – adolatdadir,adolat esa o'z Vataniningni sevish va uni himoya qilishda namoyon bo'ladi" der edilar. Amir Temur vatanparvarlikni o'z davlatini himoya qilish va mustahkamlashning asosi sifatida ko'rgan va bu tushunchani askar va fuqarolariga singdirishga harakat qilgan.

Islom olami olimi Imom Buxoriy "Vatanparvarlik Allohning buyuk ne'matlaridan biridir. O'z vataniga sodiq bo'lgan insonning Allohning roziligidiga erishish yo'lidagi harakati savobdir" deb o'z fikrlarida vatanparvarlikning diniy va ma'naviy jihatlarini aks ettiradi, musulmonlar uchun vatanini sevish va uni himoya qilish ulug' vazifa ekanligini bildiradi.

Buyuk muhaddis Imom Termiziy o'z fikrlarida "Vatan – insonning dinini, e'tiqodini, g'ururini saqlaydigan joydir. O'z vataniga muhabbat qo'ygan inson hamisha Allohning marhamatiga loyiq bo'ladi". Imom Termiziyning bu fikri vatanparvarlikni e'tiqod bilan bog'lash orqali uning ahamiyatini oshiradi.

Sharqning buyuk faylasufi Abu Nasr Forobi "Davlat va vatan taraqqiyotiga xizmat qilish – eng ulug' burchdir. Har bir inson o'z vatanini rivojlantirish uchun o'z imkoniyatlarini ishga solishi lozim". Forobi o'z asarlarida davlat, vatan va jamiyat taraqqiyotini bir-biriga bog'liq qilib tushuntiradi va insonlarning bu yo'ldagi hissasi muhimligini ta'kidlaydi.

Turkmanistonning buyuk shoiri va mutafakkiri Maxtumquli "Vatanim uchun jonim fido, desam arziydi. Chunki u mening barcha boyliklarim va g'ururimning manbai". Maxtumquli she'rlarida vatanparvarlik, milliy g'urur va yurt muhabbati haqida chuqur falsafiy ma'nno mujassam.

Buyuk tilshunos va mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy "O'z xalqining tilini, tarixini va yurtini sevmoq – bu millatni asrashning eng ulug' yo'lidir. Vatanparvarlik – bu nafaqat o'z yerini, balki o'z xalqining ruhini sevishdir" deydi.

Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Vatanparvarlik – bu yurtingni sevish, uni himoya qilish va uning ravnaqini ta'minlash uchun fidoyilik ko'rsatishdir. Vatan bizning umumiy uydir, uni asrab-avaylash barchamizning burchimizdir", "Mustaqillik bizga milliy o'zlikni, ajdodlarimizning qahramonlik tarixini qaytarib berdi. O'z vatanini sevish, millatni ardoqlash – har bir o'zbekistonlikning muqaddas burchidir" deb o'z so'zlarini juda chiroyli ifodalaganlar.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham "Vatanparvarlik – bu yurakdan chiqadigan buyuk tuyg'u bo'lib, yurtimizning har bir farzandida shu tuyg'uni uyg'otish, ularda O'zbekistonni sevish va unga xizmat qilish ruhini shakllantirish barchamizning muqaddas burchimizdir"⁷³, "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashini ta'minlash – bu bizning kelajagimizning kafolatidir" deb yoshlarga juda kotta motivatsiya bergenlar.

Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik – ajdodlarimiz va zamonamiz arboblari tomonidan yuqori baholangan qadriyatdir. Ular yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z milliy qadriyatlarini qadrlash va hurmat qilish, ajdodlarimizning jasorati va merosini saqlashga alohida e'tibor qaratganlar.

Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda o'tmishda yaratilgan ma'nnaviy meros va harbiy sarkardalar jasoratidan bahramand etishni talab etmoqda. Bu haqda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayoti qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"⁷⁴, deya ta'kidlab o'tgan edi. Binobarin, xalqimizning buyuk milliy ma'naviyati va axloqiy asoslari va uning tarixini chuqur o'rganish, anglash orqali Vatanimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni yagona maqsad sari muqaddas O'zbekistonimiz uchun xizmat qilishimiz zarur ekanligini taqozo etmoqda. Bugungi kunda vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifamiz bu mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlashdir. Tarixda yurt ozodligi, mustaqilligi yo'lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur va Bobur kabi milliyqahramonlarimizning jasoratini yoshlarimiz ongiga singdirish ularda vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rincutadi.

⁷³ Prezidentimizning 2017 yil "O'zbekiston Yoshlar ittifoqi" tashkil etilishi munosabati bilan qilgan nutqidan.

⁷⁴ Birinchi prezidentimiz I. Karimov 2011 yil 29 oktyabrda bo'lib o'tgan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yilligi" ga bag'ishlangan tadbirdagi nutqidan.

Ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitida inson qalbi va ongiga rahna soluvchi tahdidlar ortayotganligi tashvishli holdir. Ayniqsa, tashqi ta'sirlar, tazyiqlar, tajovuzlar ortishi, axborot xurujlarining avj olishi dunyo jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda. Hozirda dunyo miqyosida tahlikali vaziyatni ortib borayotgani bizdan doimo hushyor, ogoh va sergak bo'lishni talab etmoqda. Tarixdan ma'lumki, aksariyat tanazzulga yuz tutgan davlatlarda jamiyatning parchalanishida g'oyaviy parokandaliklar asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu o'rinda, bugungi kun talabi barcha voqeа hodisalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan yetarli darajada xabardor bo'lishni taqozo etmoqda.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik, yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni vatanga mehr qo'yish, Vatanni himoya qilish, uning xavfsizligi hamda yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy vatanparvarlik o'zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo'yishni talab etadi. Muhim jihatni shundaki, undagi hissiyotlar tor vatanparvarlik doirasiga sig'maydi, undan "chetga chiqadi". Harbiy vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko'rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlagandek: "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o'qitish, navqiron avlodimizni bizning xalqimizga mutlaqo begona bo'lgan buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish masalalariga zarur darajada e'tibor qaratilmadi. Ayniqsa, diniy ekstremizm g'oyalariiga berilib, yo'ldan adashgan yoshlarni sog'lom turmush tarziga qaytarishda biz Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan askar va ofiserlarimizning salohiyatidan foydalana olmayapmiz"⁷⁵. Kezi kelganda ta'kidlash zarurki, vatanparvarlik, xususan, "fuqaro vatanparvarligi" bilan "harbiy vatanparvarlik" tushunchasini bir xil deb qabul qilish noto'g'ri. Harbiy qomusiy lug'atlarda vatanparvarlikning mazmuni "yurtga sodiqlik, Vatanga muhabbat, el manfaatlariga xizmat va mamlakatni dushmanidan himoya qilish", deb talqin etiladi . Umuman olganda, harbiy vatanparvarlikning mazmun-mohiyati shu ta'rifda mujassam bo'lganga o'xshaydi. Biroq, fuqaro vatanparvarligi – huquqiy madaniyat va qonunga itoatkorlik haqidagi bilimlar tizimi bo'lib, jamiyat va davlatdagi siyosiy-huquqiy hodisajarayonlarning yangilagini baholash, fuqarolik pozisiyasiga egalik, xalqiga xizmatda doimo tayyor turish va konstitusiyaviy burchini bajarishdan iboratligi ta'kidlash lozim. Harbiy vatanparvarlik - umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas qismi bo'lib, u O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash sharoitida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois harbiy vatanparvarlikning metodologik asoslari, ilmiy-nazariy xususiyatlarini o'rganish, tadqiq va tahlil qilish har doim dolzarb axloqiy

⁷⁵ Prezidentimizning yuqoridagi fikrlari 2018 yilning 9 yanvarida O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishdagি nutqidan olingan.

masala bo'lib qolaveradi. Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o'rni va ahamiyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga ham bog'liq. Zero, bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bevosita Qurolli Kuchlar tizimi, harbiy soha, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilsa-da, oila, mahalla va ta'lif muassasasi uni bilvosita amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi va bu borada har bir fuqaro milliy-ma'naviy va axloqiy jihatlarni yaxshi bilishi lozim.

Hozirgi davrda harbiy vatanparvarlikning asosini - yurt tinchligi belgilab beradi. Bugungi tahlikali zamonda Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish, milliy armiyamizni modernizasiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ko'z qorachig'iday asrash ushbu metodologiyaning asosiy sharti va kafolati hisoblanadi. Bu shartning axloqiy mohiyati quyidagi jihatlarni taqozo etadi:

1. Harbiy xizmatchilarning axloqiy ongi. Bu – xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g'oya, qarash, ishonch, tuyg'u kabi hissiyotlar tizimidan iborat bo'lib, ularning jamiyatdagi, kundalik turmush, xizmat faoliyatidagi xattiharakatlarida namoyon bo'ladi. Bu Vatanga bo'lgan muhabbat, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas'ullik, milliy g'urur va iftixon hissiyotlaridir.

2. Harbiy xizmatchilar axloqi. Bu – vatanparvarlik, mardlik, eng zamonaviy jang qurollari va vositalarni bilish, ularni har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmaslik, harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turadi. Yuqoridagi tamoyillar hozirgi davrda harbiy vatanparvarlik ona yurting, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan yoshlarga xos fazilatga aylanishini talab etmoqda.

Chunki, Vatanga muhabbat va uning kelajagiga ishonch umumxalq manfaatlariga qaratilgan yagona maqsad asosida shakllangandagina harbiy vatanparvarlik o'z taqdirini Vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilar fazilatiga aylanadi. Ta'kidlash joizki, harbiy vatanparvarlik milliy merosimizning qadimiy tarixi va ma'naviy manbalariga borib ulanadi. Jumladan, "Avesto" adabiy yodgorligida, "Go'ro'g'li", "Alpomish" singari qahramonlik dostonlarida, "Temur tuzuklari", "Mahbub ul-qulub", "Turkiy Guliston yohud axloq" kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda harbiy vatanparvarlik g'oyalarining targ'iboti bilan bog'liq masalalarni axloqshunoslik kontekstida o'rganish g'oyatda dolzarbdir. Chunki, yoshlarda g'urur, or-nomus, sha'n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish bevosita harbiy vatanparvarlik shartlari asosida reallikka aylanadi.

Bundan tashqari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning harbiy vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug'lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog'liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatları aks etgan manbalarни chuqurroq tahlil

qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Ta'kidlash zarurki, o'zbek xalqining milliy-ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg'u "muhabbat", "ishonch", "sadoqat" kabi ma'naviy va axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rinni olganligi uchun ham davrlar mobaynida o'z mavqeini yo'qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir. Vatanparvarlik o'zida birlashtirish, yo'naltirish, jipslashtirish, safarbar qilish kabi axloqiy sifatlarni mujassam etgani uchun o'zbek xalqi ma'naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug'lanadi. Bundan yuksak ma'naviy qadriyatimiz hisoblangan Islom dini ham mustasno emas. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi ,avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq.

Ajdodlar merosi orqali yosh avlodga ma'naviy qadriyatlar, ahloqiy normalar va insoniy sifatlar o'rgatiladi. Bu qadriyatlar ichida mehr-oqibat,adolat, sadoqat va vatanparvarlik tushunchalari muhim o'rinni tutadi va an'anaviy urf-odatlar va marosimlar ham vatanparvarlik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Navro'z bayrami, Kurban Hayit va boshqa an'anaviy bayramlar davomida yoshlar o'z xalqining tarixi va madaniyati bilan tanishadilar.

Ajdodlar merosi, yosh avlodning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ular o'z ijodiy yondashuvlari bilan an'anaviy madaniyatni zamonaviy kontekstdan ko'rsatishga qodir. Yosh avlod ajdodlar merosidan foydalanib, zamonaviy san'at va madaniyatda yangi g'oyalarni yaratish va ulardan foydalanish orqali vatanparvarlik ruhini namoyon qilishlari mumkin.

Ajdodlar merosi yoshlar o'rtasida birlashuv va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ular o'zaro hamjihatlik, o'z xalqiga bo'lgan sadoqat va vatanparvarlik hislarini rivojlantiradi. Ajdodlar merosiga asoslangan tarbiya, milliy birlik va totuvlikni kuchaytiradi, bu esa jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ijtimoiy tadbirlar va madaniyat festivallar ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bunday tadbirlarda faol ishtirok etish orqali o'z milliy an'analarini va tarixini o'rganadilar. Undan tashqari maktablarda va oliy ta'lif muassasalarida ajdodlar merosiga oid darslar, seminarlar va tadbirlar o'tkazish orqali yoshlar vatanparvarlikni chuqurroq o'rganishlari mumkin.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ajdodlar merosini yosh avlodga yetkazish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ajdodlar merosi haqida ma'lumotlar tarqatish, yoshlar o'rtasida qiziqish va muhokamalarni tashkil etish mumkin. Ta'lif muassasalarida ajdodlar merosi bilan bog'liq zamonaviy darsliklar va metodikalar ishlab chiqish, vatanparvarlik ruhida ta'lif berish jarayonini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda ajdodlar merosi muhim o'rinni tutadi. Ular nafaqat milliy identitetni shakllantiradi, balki yoshlarni o'z xalqiga sadoqat, jasorat va mas'uliyat bilan tarbiyalashda muhim manba bo'lib

xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ta'lim muassasalari, ota-onalar, mahalliy jamoatlar va davlat tashkilotlari birlgilikda faol ishtirok etishlari zarur. Ajdodlar merosini o'rganish va uni hayotga tatbiq etish orqali yosh avlod o'zligini anglashga, o'z tarixini va madaniyatini saqlashga hissa qo'shishi mumkin.